MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 9
Nematova Dilnoza Azamatovna
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI 15
Erdonayev Aliqul Xalimovich
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ 23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH 29
Bazarova Mamlakat Supiyevna
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODELI 33
Tojiyev S.A., Mashg‘ulotov J.A., Usmonov U.M.
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIKLARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI 44
Toshov Mirzabek Hakimovich
O‘ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH 50
O‘rinova Umida Qodirjonovna
QISHLOQ XO‘JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO‘SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI BOSHQARISH 64
Muhamedov Nodir Abdug‘aniyevich
IKKI TOMONLAMA TA’MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH 69
To‘ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ 80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA’SIRI 90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH 99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI 114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI 122
Axmedov G‘ayratjon Maxmudjonovich

QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO‘RSATKICHLAR TIZIMI 129
G‘iyosov Ilxom Karimovich
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G‘OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI 137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI 142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna
KORXONALARDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 148
Ikramova Nasiba Axmadovna
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING MAMLAKAT IQTISODIY O‘SISHIGA TA’SIRI 153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) 158
Ibragimov Aziz Turayevich
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHIKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO‘NALTIRISH USULLARI 164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО 171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE 181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich
TUMANLAR SANOAT SALOHIYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) 193
Yusupova Nigina Djurayevna
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH 199
O‘sarov Abdulla Davronqulovich

TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

O‘sarov Abdulla Davronqulovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: abdullo@samdu.uz
ORCID: 0009-0001-6021-0128

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy va institutsional mexanizmlari hamda ularning samaradorligini baholash masalalari iqtisodiy jihatdan tadqiq etilgan. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy tuzilmalari, iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari hamda ularning turizm sohasi rivojlanishiga ta’siri tizimli tahlil qilingan. Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari samaradorligining turistik xizmatlar rivoji, investitsion faollik, turizm infratuzilmasi, bandlik va hududlarning turistik salohiyatidan foydalanish natijalari bilan o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Tahlil natijasida turizm sohasi barqaror rivojlanishini ta’minlashda tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning o‘zaro muvofiqligini kuchaytirish, ularning natijadorligini barqaror rivojlanish mezonlari asosida kompleks baholash hamda davlat tomonidan tartibga solish vositalarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, barqaror rivojlanish, turizm sohasi, davlat tomonidan tartibga solish, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, institutsional mexanizm, turizm infratuzilmasi, investitsion faollik, davlat-xususiy sheriklik, samaradorlik, barqaror turizm.

Аннотация. В статье с экономической точки зрения исследованы организационно-экономические и институциональные механизмы государственного регулирования устойчивого развития сферы туризма в Узбекистане, а также вопросы оценки их эффективности. Проведён системный анализ организационных структур государственного регулирования сферы туризма, инструментов экономического стимулирования, нормативно-правовых и институциональных механизмов, отношений государственно-частного партнёрства, а также их влияния на развитие сферы туризма. Обоснована взаимосвязь эффективности механизмов государственного регулирования с развитием туристских услуг, инвестиционной активностью, туристской инфраструктурой, занятостью и результатами использования туристского потенциала регионов. По результатам анализа обоснована необходимость усиления взаимной согласованности организационных, экономических и институциональных механизмов обеспечения устойчивого развития сферы туризма, комплексной оценки их результативности на основе критериев устойчивого развития, а также совершенствования инструментов государственного регулирования.

Ключевые слова: туризм, устойчивое развитие, сфера туризма, государственное регулирование, организационный механизм, экономический механизм, институциональный механизм, туристская инфраструктура, инвестиционная активность, государственно-частное партнёрство, эффективность, устойчивый туризм.

Abstract. This article examines, from an economic perspective, the organizational-economic and institutional mechanisms of government regulation of the sustainable development of the tourism sector in Uzbekistan, as well as issues related to assessing their effectiveness. A systematic analysis is conducted of the organizational structures of government regulation of the tourism sector, economic incentive instruments, regulatory and institutional mechanisms, public-private partnership relations, and their impact on tourism sector development. The interrelationship between the effectiveness of government regulation mechanisms and the development of tourism services, investment activity, tourism infrastructure, employment, and the results of utilizing the tourism potential of the regions is substantiated. Based on the analysis, the study substantiates the need to strengthen the coordination of organizational, economic, and institutional mechanisms for ensuring the sustainable development of the tourism sector, comprehensively assess their effectiveness according to sustainable development criteria, and improve government regulation instruments.

Keywords: tourism, sustainable development, tourism sector, government regulation, organizational mechanism, economic mechanism, institutional mechanism, tourism infrastructure, investment activity, public-private partnership, effectiveness, sustainable tourism.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish, xizmatlar bozorini kengaytirish hamda mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizmning transport, savdo, umumiy ovqatlanish, joylashtirish, madaniyat, axborot-kommunikatsiya va boshqa xizmat tarmoqlari bilan uzviy bog‘liqligi uning iqtisodiyotdagi multiplikativ ta’sirini kuchaytiradi. Shu bilan birga, turistik faoliyat ko‘lamining kengayishi iqtisodiy manfaatlar bilan ijtimoiy va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash zaruratini yuzaga keltirib, turizm sohasini barqaror rivojlantirish masalasini davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

Turizm sohasining barqaror rivojlanishi bozor mexanizmlarining mustaqil amal qilishi bilangina ta’minlanmaydi. Turistik resurslarning o‘ziga xosligi, infratuzilmani shakllantirish uchun katta hajmdagi investitsiyalarga ehtiyoj mavjudligi, turistik faoliyat natijalarining hududiy rivojlanish va mahalliy aholi manfaatlariga ta’siri, tabiiy va madaniy meros obyektlarini asrash zarurati davlatning tartibga soluvchi rolini kuchaytirishni taqozo etadi. Bunda davlatning vazifasi turistik faoliyatga bevosita aralashishdan ko‘ra, bozor subyektlarining samarali faoliyati uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarni yaratish, manfaatdor tomonlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanish manfaatlarini ta’minlashdan iborat.

Davlat tomonidan turizm sohasini tartibga solish murakkab va ko‘p komponentli tizim bo‘lib, uning samaradorligi qo‘llanilayotgan mexanizmlarning o‘zaro muvofiqligi bilan belgilanadi. Tashkiliy mexanizmlar turizmni strategik rejalashtirish, boshqaruv organlari vakolatlarini muvofiqlashtirish, hududiy boshqaruvni tashkil etish, monitoring va nazorat jarayonlarini qamrab olsa, iqtisodiy mexanizmlar investitsiyalarni rag‘batlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq va kredit vositalaridan foydalanish, turistik infratuzilmani rivojlantirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun iqtisodiy sharoit yaratishga yo‘naltiriladi. Institutsional mexanizmlar esa normativ-huquqiy muhit, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, mulkiy va shartnomaviy munosabatlar, davlat, biznes va mahalliy hamjamiyatlar o‘rtasidagi hamkorlikning barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Biroq davlat tomonidan tartibga solish vositalarining mavjudligi ularning samarali faoliyat ko‘rsatayotganligini o‘z-o‘zidan anglatmaydi. Tashkiliy tuzilmalarning shakllantirilishi, iqtisodiy rag‘batlarning joriy etilishi yoki institutsional normalarning qabul qilinishi yakuniy natijada turizm sohasining barqaror rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligini aniqlash zarur. Shu sababli davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini uning alohida vositalari yoki amalga oshirilgan chora-tadbirlar soni orqali emas, balki erishilgan iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy, ekologik va institutsional natijalar bilan o‘zaro bog‘liq holda baholash metodologik jihatdan muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda davlatning turizm siyosatidagi roli, boshqaruv institutlari faoliyati, iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, manfaatdor tomonlar hamkorligi va barqaror turizm boshqaruvi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishda shakllangan ilmiy qarashlar davlatning turizm sohasidagi rolini an’anaviy ma’muriy tartibga solishdan ko‘p subyektli va institutsional boshqaruv tizimiga o‘tishi bilan tavsiflaydi.

B. Bramwell va B. Lane barqaror turizmni boshqarishda samarali governance mexanizmlarini muhim shart sifatida baholaydilar. Ularning yondashuviga ko‘ra, barqaror turizmni ta’minlash davlat organlarining alohida faoliyati bilangina chegaralanmay, xususiy sektor, mahalliy hamjamiyatlar va boshqa manfaatdor tomonlarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ham talab qiladi. Mualliflar samarali boshqaruv mexanizmlari barqaror turizm maqsadlarini amaliy natijalarga aylantirish, boshqaruvga yo‘nalish berish va manfaatdor tomonlar faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga egaligini asoslaydilar.

C.M. Hall turizmni tartibga solishga davlat va bozor o‘rtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan yondashib, turizm boshqaruvining iyerarxik, bozor, tarmoq va hamjamiyatga asoslangan to‘rtta asosiy turini ajratadi. Mazkur tasnif davlatning bevosita aralashuvi bilan bozorning o‘zini o‘zi tartibga solishi o‘rtasidagi nisbatni, shuningdek, davlat, biznes va jamiyat subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Olim tomonidan taklif etilgan yondashuv davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini faqat ma’muriy boshqaruv natijalari bilan emas, balki siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, foydalaniladigan instrumentlar hamda turli subyektlarning boshqaruvdagi ishtiroki orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.

B. Bramwell davlatning barqaror turizmni ta’minlashdagi rolini siyosiy-iqtisodiy yondashuv asosida o‘rganib, turistik destinatsiyalarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish ko‘p hollarda jamoaviy harakatlarni talab qilishini ta’kidlaydi. Mazkur jarayonda davlat institutsional sharoitlarni shakllantiruvchi, manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi va turizm rivojlanishining strategik yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv davlat aralashuvining natijadorligini turizm bozoridagi alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlardan kengroq doirada, ya’ni davlat institutlari va boshqa manfaatdor tomonlarning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq

holda o‘rganish zarurligini asoslaydi.

C.M. Hallning barqaror turizm siyosatidagi policy learning va policy failure masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashda alohida ahamiyat kasb etadi. Olim barqaror turizm konsepsiyasining davlat siyosati va turizm amaliyotida keng tarqalganiga qaramay, bu holat avtomatik ravishda barqaror natijalarga erishilganini anglatmasligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, tartibga solish mexanizmlarini baholashda qabul qilingan siyosiy qarorlar yoki dasturlar sonidan ko‘ra, ularning amaldagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarga transformatsiyalanish darajasiga e’tibor qaratish muhimdir.

B. Bramwell va L. Alletorp davlat hamda biznesning barqaror turizmni shakllantirishdagi rollarini o‘rganib, turizmning yanada barqaror shakllariga o‘tish davlat tomonidan tartibga solish va boshqa aralashuv vositalari bilan biznes subyektlarining bozor sharoitidagi mustaqil qarorlarining uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatgan. Ushbu qarash davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini tadbirkorlik tashabbusini cheklovchi vosita sifatida emas, balki xususiy sektor faoliyatini barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘naltiruvchi rag‘batlantirish tizimi sifatida shakllantirish zarurligini anglatadi.

A. Torres-Delgado va F. López Palomeque barqaror turizm konsepsiyasining turizm siyosatiga integratsiyalashuvida institutsional tashabbuslarning rolini o‘rganganlar. Mualliflar xalqaro, Yevropa va milliy darajadagi 55 ta institutsional hujjatni tizimli tahlil qilib, institutsional tashabbuslar barqarorlik tamoyillarining turizm siyosatiga kirib borishi va turizm industriyasida tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini aniqlaganlar. Mazkur natija turizmning barqaror rivojlanishida normativ-huquqiy baza, strategik hujjatlar va tegishli boshqaruv institutlarining mavjudligi institutsional mexanizmning muhim tarkibiy elementlari ekanligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, statistik guruhlash, indeks usuli, taqqoslash, kompleks baholash, umumlashtirish hamda grafik tahlil usullaridan foydalaniladi. Turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini aniqlashda tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning dinamik o‘zgarishlari, natijadorlik darajasi hamda ularning turizm sohasi barqaror rivojlanishiga ta’siri o‘zaro bog‘liq holda baholanadi. Shuningdek, davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy va institutsional mexanizmlari samaradorligini kompleks baholash asosida ularning turizm sohasini rivojlantirishdagi o‘rni va natijadorligi aniqlanadi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, rasmiy statistik ma’lumotlar, vakolatli davlat organlarining ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning uslubiy materiallari hamda turizmni davlat tomonidan tartibga solish va barqaror rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning miqdorini emas, balki ularning turizm tizimida yuzaga keltirgan iqtisodiy, tashkiliy va institutsional natijalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tashkiliy, iqtisodiy va institutsional yo‘nalishlarga ajratish hamda ularning natijadorligini turizm sohasi rivojlanishining tegishli ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda baholash maqsadga muvofiq.

Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining funksional mazmuni va ularning samaradorligini ifodalovchi asosiy mezonlar 1-jadvalda tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va ularning samaradorlik mezonlari

Mexanizmlar	Asosiy tartibga solish vositalari	Samaradorlik mezonlari	**Kutiladigan natija**
Tashkiliy mexanizm	Strategik rejalashtirish, davlat boshqaruvi, muvofiqlashtirish, monitoring, hududiy boshqaruv, raqamli davlat xizmatlari	Boshqaruv natijadorligi, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, turistik infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi	Turizmni boshqarish va muvofiqlashtirish samaradorligining oshishi
Iqtisodiy mexanizm	Investitsiyalarni rag‘batlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq va kredit vositalari, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash	Turistik mahsulot va xizmatlar hajmi, investitsion faollik, xizmatlar eksporti, tadbirkorlik faolligi	Turizmning iqtisodiy natijadorligi va raqobatbardoshligining oshishi

Institutsional mexanizm	Normativ-huquqiy baza, davlat-xususiy sheriklik, tadbirkorlik muhiti, manfaatdor tomonlar hamkorligi	Turistik faoliyat subyektlari soni, xususiy sektor faolligi, institutsional hamkorlik darajasi	Barqaror va raqobatbardosh turizm bozorining shakllanishi
Kompleks natija	Tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning o‘zaro muvofiqligi	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarning mutanosibligi	Turizm sohasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash

1-jadvaldan ko‘rinadiki, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining har biri turizm sohasi barqaror rivojlanishining alohida yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ularning samaradorligi alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Tashkiliy mexanizm tegishli boshqaruv va muvofiqlashtirish muhitini yaratsa, iqtisodiy mexanizm turistik faoliyatni moliyaviy va investitsion jihatdan rag‘batlantiradi, institutsional mexanizm esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Demak, biror mexanizmdagi institutsional yoki tashkiliy cheklov iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarining yakuniy natijadorligini ham pasaytirishi mumkin.

Davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy natijadorligini baholashda turizm tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmining dinamikasi muhim natijaviy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining turizm yordamchi hisobi ma’lumotlari asosida ushbu ko‘rsatkichlarning 2020–2024-yillardagi o‘zgarishi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistonda turizm tarmoqlari iqtisodiy faoliyatining asosiy natijaviy ko‘rsatkichlari, 2020-2024-yillar, mlrd. so‘m

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	**2022**	**2023**	**2024**	**2024/2020, %**
Turizm tarmoqlari ishlab chiqarishi	88698,7	122255,8	174441,0	228448,0	286682,1	3,2 marta
Turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqarishi	34548,8	46692,4	62037,6	78952,1	107692,2	3,1 marta
Joylashtirish xizmatlari	3592,5	5212,8	6929,5	9037,3	11430,5	3,2 marta
Umumiy ovqatlanish xizmatlari	4703,0	7019,7	10659,2	15559,2	20725,2	4,4 marta

2-jadval ma’lumotlari 2020–2024-yillarda O‘zbekistonda turizm tarmoqlari iqtisodiy faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarida barqaror o‘sish tendensiyasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, turizm tarmoqlari ishlab chiqarishi 2020-yildagi 88698,7 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 286682,1 mlrd. so‘mga yetib, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 3,2 marta oshgan. Mutlaq hisobda ushbu ko‘rsatkich 197983,4 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Yillik dinamika ham uzluksiz o‘sish xususiyatiga ega bo‘lib, bu turizm bilan bevosita va bilvosita bog‘liq iqtisodiy faoliyat ko‘lamining kengayib borayotganligini ifodalaydi.

Turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 34548,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 107692,2 mlrd. so‘mga yetgan va 3,1 marta oshgan. Mutlaq o‘sish 73143,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichning umumiy turizm tarmoqlari ishlab chiqarishiga nisbatan o‘sish sur’ati biroz past bo‘lishi turizm bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat tarkibida turizmga xos bo‘lmagan, biroq turistlar iste’moli bilan bilvosita bog‘langan xizmatlar va mahsulotlarning ham iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, turizmning iqtisodiyotga ta’siri faqat an’anaviy turistik xizmatlar doirasi bilan cheklanmasdan, turdosh xizmat tarmoqlariga ham tarqalayotganini qayd etish mumkin.

Joylashtirish xizmatlari hajmida ham yuqori o‘sish kuzatilgan. Mazkur xizmatlar hajmi 2020-yildagi 3592,5 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 11430,5 mlrd. so‘mga yetib, 3,2 marta oshgan. Mutlaq o‘sish 7838,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Joylashtirish xizmatlari hajmining izchil kengayishi turistlarni qabul qilish imkoniyatlari, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari faoliyati hamda ularga bo‘lgan talabning oshib borishi bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydi. Davlat tomonidan tartibga solish nuqtayi nazaridan ushbu tendensiya turistik infratuzilmani rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning natijalari bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlar orasida eng yuqori o‘sish umumiy ovqatlanish xizmatlarida qayd etilgan. Ushbu xizmatlar hajmi 2020-yildagi 4703,0 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 20725,2 mlrd. so‘mga yetib, 4,4 marta oshgan. Mutlaq o‘sish 16022,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Umumiy ovqatlanish xizmatlarining boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan tez sur’atlarda kengayishi turistik iste’mol tarkibida ovqatlanish va gastronomik xizmatlarning iqtisodiy

ahamiyati kuchayayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy mahsulotlar iste’molini rag‘batlantirish hamda turizmning hududiy multiplikativ samarasini oshirish imkoniyatlariga ega.

Ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024-yillarda o‘sish sur’ati bo‘yicha umumiy ovqatlanish xizmatlari (4,4 marta) birinchi o‘rinni, turizm tarmoqlari ishlab chiqarishi va joylashtirish xizmatlari (3,2 martadan) keyingi o‘rinlarni, turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqarishi (3,1 marta) esa nisbatan pastroq o‘rinni egallagan. Shunday qilib, turizm tarmoqlaridagi iqtisodiy o‘sish bir xil sur’atlarda kechmagan, balki xizmatlar tarkibida ma’lum strukturaviy siljishlar yuz bergan.

Mazkur ko‘rsatkichlar turistik xizmatlar bozorida xususiy sektor va turistik tashkilotlarning iqtisodiy faolligi oshib borayotganini ifodalaydi. Biroq hududiy tarkibda sezilarli konsentratsiya mavjud. 2024-yilda turistik firma va tashkilotlarning 52,5 foizi Toshkent shahri va 19,4 foizi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgan. Demak, faqat ushbu ikki hudud jami turistik firma va tashkilotlarning 71,9 foizini o‘zida jamlagan (3-jadval).

3-jadval
O‘zbekistonda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy natijaviy ko‘rsatkichlari, 2024-yil

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Turistik firma va tashkilotlar	743 ta
Xizmat ko‘rsatilgan shaxslar	1 972,9 ming kishi
Sotilgan turlar	601,5 mingta
Samarqand viloyatidagi turistik tashkilotlar	144 ta
Samarqand viloyatining respublikadagi ulushi	19,4 %
Toshkent shahrining respublikadagi ulushi	52,5 %

Bu holat institutsional mexanizm samaradorligining ikki tomonlama xususiyatini ko‘rsatadi. Bir tomondan, turistik markazlarda biznes subyektlari uchun shakllangan infratuzilma va institutsional muhit xususiy sektorning faol rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan, turistik tadbirkorlikning ayrim hududlarda yuqori darajada jamlanishi boshqa hududlarning mavjud turistik salohiyatini iqtisodiy faoliyatga aylantirish imkoniyatlari to‘liq ishga solinmaganligini anglatadi. Shu sababli institutsional samaradorlikni faqat turistik subyektlarning umumiy soni bilan emas, balki ularning hududiy taqsimlanishi va hududiy turistik salohiyatdan foydalanish darajasi bilan ham baholash zarur.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish natijadorligini ifodalovchi yana bir muhim ko‘rsatkich xorijiy turistik oqimning o‘zgarishidir (4-jadval).

4-jadval
O‘zbekistonga xorijiy fuqarolarning turistik tashriflari dinamikasi, 2020-2025-yillar

Yillar	Turistik tashriflar, mingta	Oldingi yilga nisbatan o‘sish, %
2020	1 504,1	–
2021	1 881,3	25,1
2022	5 232,8	178,1
2023	6 626,3	26,6
2024	7 957,2	20,1
2025	11 679,6	46,8
2025/2020	**7,77 barobar**	**+676,5 %**

2020–2025-yillarda O‘zbekistonga xorijiy fuqarolarning turistik tashriflari 1,5 mln.dan 11,68 mln.gacha ko‘payib, qariyb 7,77 barobarga oshgan. Dinamikaning tarkibiy tahlili 2022-yilda tiklanish jarayoni keskin tezlashganini, 2023–2024-yillarda nisbatan barqaror o‘sish shakllanganini va 2025-yilda o‘sish sur’ati yana jadallashganini ko‘rsatadi.

Turistik oqimning bunday kengayishi tashkiliy va institutsional sharoitlar, xalqaro turizm bozoriga integratsiya, turistik infratuzilma hamda xususiy sektor faolligi bilan o‘zaro bog‘liq. Shu bilan birga, turistik oqimning o‘sishini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligining yagona mezoni sifatida qabul qilish mumkin emas. Barqarorlik nuqtayi nazaridan turistlar sonining ko‘payishi yaratilayotgan iqtisodiy qiymat, xizmat ko‘rsatish sifati, hududiy manfaat, infratuzilma sig‘imi va turistik resurslardan oqilona foydalanish bilan mutanosib bo‘lishi lozim.

Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining institutsional natijadorligini turizm bozorida faoliyat

ko‘rsatish uchun shakllangan sharoitlar va turistik biznes subyektlari sonining o‘zgarishi orqali ham kuzatish mumkin. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar soni 2022-yilda 1841 tani, 2023-yilda 2374 tani, 2024-yilda 2539 tani va 2025-yilda 2592 tani tashkil etgan (5-jadval).

5-jadval
Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi turoperatorlar, turagentlar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar sonining o‘zgarishi

Yillar	Tashkilotlar soni, birlik	Bazis o‘sish, 2022-yilga nisbatan %
2022	1 841	100,0
2023	2 374	129,0
2024	2 539	137,9
2025	2 592	140,8

2022–2025-yillarda ushbu toifadagi tashkilotlar soni 751 taga yoki 40,8 foizga oshgan. Bu turizm bozorining institutsional va tadbirkorlik bazasi kengayayotganligini ko‘rsatadi. Biroq 2023-yildagi yuqori o‘sishdan keyin 2024–2025-yillarda subyektlar sonining o‘sish sur’ati sekinlashgan. Shuning uchun institutsional siyosatning keyingi bosqichida faqat yangi subyektlarni tashkil etishni rag‘batlantirish emas, balki ularning iqtisodiy barqarorligi, xizmatlar sifati, innovatsion faolligi va hududiy diversifikatsiyasiga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilgan tahlillar asosida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining natijadorligini qiyosiy tavsiflash mumkin (6-jadval).

6-jadval
Turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining natijadorligini baholash

Mexanizm	Kuzatilgan natija	Ijobiy tendensiya	Takomillashtirish zarur bo‘lgan yo‘nalish
Tashkiliy	Turistik faoliyat va xizmat ko‘rsatish ko‘lamining kengayishi	Turizm boshqaruvi va infratuzilmaviy ta’minotning rivojlanishi	Hududlararo boshqaruv va monitoringni kuchaytirish
Iqtisodiy	Turizm tarmoqlari ishlab chiqarishining 3,23 barobarga o‘sishi	Turistik xizmatlar va iqtisodiy faollikning jadal kengayishi	O‘sishning real samaradorligi va resurs qaytimini baholash
Institutsional	Turizm bozoridagi subyektlar sonining kengayishi	Xususiy sektor va tadbirkorlik faolligining oshishi	Hududiy konsentratsiyani kamaytirish va institutlar hamkorligini kuchaytirish
Barqarorlik natijasi	Turistik oqim va turizm iqtisodiy ko‘lamining o‘sishi	Turizmning iqtisodiy ahamiyati ortishi	Iqtisodiy natijalarni ijtimoiy va ekologik samaralar bilan muvofiqlashtirish

6-jadval asosida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi bo‘yicha uchta muhim ilmiy natijani ajratish mumkin. Birinchidan, iqtisodiy mexanizm natijadorligi turizm tarmoqlarida yaratilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmining jadal kengayishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, institutsional mexanizm natijadorligi turizm bozorida faoliyat yurituvchi subyektlar sonining ortishi orqali namoyon bo‘lmoqda, biroq ularning hududiy konsentratsiyasi institutsional rivojlanishning mutanosib emasligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, tashkiliy mexanizmlar turistik oqim, xizmat ko‘rsatish va infratuzilma rivojiga sharoit yaratmoqda, ammo ularning samaradorligini yakuniy baholashda natijalarning hududiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikka transformatsiyalanish darajasi ham hisobga olinishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan kompleks jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Tashkiliy mexanizmlar strategik rejalashtirish, boshqaruv, muvofiqlashtirish va monitoring jarayonlarining samaradorligini ta’minlasa, iqtisodiy mexanizmlar investitsiyalarni rag‘batlantirish, turistik infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Institutsional mexanizmlar

esa normativ-huquqiy muhit, davlat-xususiy sheriklik va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli ushbu mexanizmlarning birortasini alohida holda takomillashtirish turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini to‘liq ta’minlay olmaydi.

2020–2024-yillar bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil turizm tarmoqlarida iqtisodiy faollik sezilarli kengayganligini ko‘rsatdi. Turizm tarmoqlari ishlab chiqarish hajmi 88 698,7 mlrd so‘mdan 286 682,1 mlrd so‘mga yetib, 3,2 marta, turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqarishi 3,1 marta, joylashtirish xizmatlari 3,2 marta va umumiy ovqatlanish xizmatlari 4,4 marta oshgan. Tahlil qilinayotgan yo‘nalishlar orasida eng yuqori o‘sish umumiy ovqatlanish xizmatlarida kuzatilishi turizm bilan bog‘liq servis tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichlarning joriy narxlarda ifodalanishi turizm tarmoqlaridagi nominal o‘sishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari samaradorligining yagona mezoni sifatida baholash imkonini bermaydi. Turizm bozoridagi talab, narxlar darajasi, xususiy sektor faolligi va tashqi iqtisodiy omillar ham yakuniy natijalarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholashda “tartibga solish vositalari – tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar – bevosita natijalar – yakuniy barqarorlik samarasi” o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar taklif etiladi:

Tartibga solish samaradorligini baholashning kompleks indikatorlar tizimini shakllantirish. Unda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda boshqaruv natijadorligi, xususiy sektor faolligi, hududiy mutanosiblik, bandlik, ekologik barqarorlik va manfaatdor tomonlar hamkorligini ifodalovchi indikatorlardan foydalanish zarur.

Tashkiliy mexanizmlarda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytirish. Davlat va hududiy boshqaruv organlari faoliyatini turistik obyektlar yoki amalga oshirilgan tadbirlar soni bilan emas, balki turizmning hududiy iqtisodiy va ijtimoiy natijalariga qo‘shgan hissasi orqali baholash maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarini samaradorlik mezonlari bilan bog‘lash. Turistik loyihalarni moliyaviy va investitsion qo‘llab-quvvatlashda yaratiladigan ish o‘rinlari, mahalliy mahsulot va xizmatlardan foydalanish, investitsiya qaytimi hamda hududiy iqtisodiyotga multiplikativ ta’sir kabi natijaviy mezonlarni hisobga olish lozim.

Institutsional mexanizmlarning hududiy ta’sirini kuchaytirish. Turistik tadbirkorlikning ayrim markazlarda yuqori darajada jamlanishini kamaytirish uchun turistik salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotgan hududlarda davlat-xususiy sheriklik, tadbirkorlik tashabbuslari va mahalliy turistik loyihalarni rag‘batlantirish zarur.

Barqarorlik mezonlarini davlat turizm siyosatiga integratsiyalash. Turizmni rivojlantirish dasturlari va loyihalarini baholashda iqtisodiy natijadorlik bilan bir qatorda ijtimoiy manfaat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va madaniy merosni saqlash mezonlari ham hisobga olinishi lozim.

Umuman, turizm sohasi barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi amalga oshirilgan chora-tadbirlar soni yoki alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishi bilan emas, balki tashkiliy natijadorlik, iqtisodiy samaradorlik va institutsional sifatning turizmning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik barqarorligiga transformatsiyalanish darajasi bilan baholanishi lozim. Mazkur yondashuv davlatning turizm siyosatini natijaga yo‘naltirish, mavjud tartibga solish vositalarining samaradorligini oshirish va turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ–549-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-4428097?ONDATE=14.05.2024
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3. Bramwell B., Lane B. Sustainable Tourism: An Evolving Global Approach // Journal of Sustainable Tourism. – 1993. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–5. – DOI: 10.1080/09669589309450696.
4. Bramwell B., Lane B. Critical Research on the Governance of Tourism and Sustainability // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 411–421. – DOI: 10.1080/09669582.2011.580586.
5. Hall C.M. A Typology of Governance and Its Implications for Tourism Policy Analysis // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 437–457. – DOI: 10.1080/09669582.2011.570346.
6. Hall C.M. Policy Learning and Policy Failure in Sustainable Tourism Governance: From First- and Second-Order to Third-Order Change? // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 649–671. – DOI: 10.1080/09669582.2011.555555.
7. Bramwell B. Governance, the State and Sustainable Tourism: A Political Economy Approach // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 459–477. – DOI: 10.1080/09669582.2011.576765.
8. Torres-Delgado A., López Palomeque F. The Growth and Spread of the Concept of Sustainable Tourism: The Contribution of Institutional Initiatives to Tourism Policy // Tourism Management Perspectives. – 2012. – Vol. 4. – P. 1–10. – DOI: 10.1016/j.tmp.2012.05.001.
9. Sharpley R. Tourism and Sustainable Development: Exploring the Theoretical Divide // Journal of Sustainable Tourism. – 2000. – Vol. 8, No. 1. – P. 1–19. – DOI: 10.1080/09669580008667346.

10. Hunter C. Sustainable Tourism as an Adaptive Paradigm // Annals of Tourism Research. – 1997. – Vol. 24, No. 4. – P. 850–867. – DOI: 10.1016/S0160-7383(97)00036-4.
11. United Nations World Tourism Organization, United Nations Development Programme. Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030. – Madrid: UNWTO, 2017.
12. United Nations, UN Tourism. Statistical Framework for Measuring the Sustainability of Tourism (SF-MST). – New York–Madrid, 2024.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm yordamchi hisobi: O‘zbekistonda turizm tarmoqlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2020–2024-yillar // Statistika integrallashgan axborot tizimi (SIAT). – Toshkent, 2025.
14. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga oid rasmiy axborot va tahliliy materiallar. – Toshkent, 2025.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100